



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

TARIXIY ROMANNAVISLIKDA TARIXIYLIK VA BADIYLIK MASALALARI

Shomurodov San'at

Nukus innovatsion instituti Samarqand filiali o'qituvchisi.

Tarixiy romannavislik – badiiy adabiyotning boshqa janlariga qaraganda bir muncha murakkab va yozuvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Chunki tarixiy romannavis oldida tarixiy davr voqeligiga oid tarixiy manbalarni sinchkovlik bilan o'rganishni talab etadi. Ikkinchi murakkab masala esa buyuk tarixiy shaxslar faoliyati haqida tarixnavislar va o'z davri kishilari tomonidan turfa xil munosabat bildirilishidir. Ijodkor oldida esa bu manbalarni saralab, tarixiy davr voqeligiga zid bo'lmagan holda o'zining tarixiy mavzudagi asariga olib kira bilishdek mashaqqatli vazifani maromiga yetkazib, talqin etish masalasi turadi. Bu tarixiy romanchilikning shartli xususiyatlaridan biridir. Eng asosiy masala, tarixiy davr talqinida va millat tarixida muhim ro'l aynagan tarixiy siymolar obrazini yaratish tarix haqiqatiga uyg'un holda bo'lishi lozim. Aks holda yozuvchining kichik bir e'tiborsizligi tufayli ajdodlar shaxsiyati haqida salbiy dunyoqarash shakllanib qolishi mumkin. Chunki tarixiy manbalarni keng jamoatchilik o'rganmasligi tabiiy hol sifatida qaralsa, tarixiy asarlarga adabiyot ixlosmandlari va adabiyotshunoslar tomonidan munosabat bildiriladi va tadqiq etiladi. Bu kabi jihatlarni tarixiy romannavislar e'tibordan chetda qoldirmasli shart va zarur. Shuning uchun ham tarixiy mavzuda ijod qilgan har qanday ijodkorning asari favqulotda pishiq chiqavermaydi va shunga yarasha asarning o'qimishlilik darajasi ham birmuncha sust bo'lib qolaveradi hamda o'zining yashavchanlik sifatini tezda yo'qatishi mumkin. Bundan tashqari, bunday tarixiy asarlarga adabiy tanqidchilik ham ijobiy munosabat bildirmasligi aniq. Shunday bir holatda, tarixiy mavzuda asar yozadigan ijodkordan, teran ijodiy qobilyat, uzoq vaqt mobaynida talab etiladigan ilmiy izlanish, siz – u bizga qorong'u bo'lgan murakkab o'tmish voqeligini va chigal insoniy taqdirlarni bugungi kunning dolzarb masalalariga bog'liq bo'lgan umumbashariy insoniy munosabatlar bilan uyg'unlashtirilgan holda talqin qila olsagina, tom ma'nodagi tarixiy roman yaratiladi. Tarix voqeligini qayta hikoyalash bilangina tarixiy roman yaratish bu ijodkor shaxsini tarixchi olimga yaqinlashtiradi, xalos. Yozuvchining ijodiy maqsadi va tarixiy haqiqat borasida qarashlar xususida adabiyotshunos Akif Bag'irov o'zining "Badiiy ideal va tarixiy haqiqat" nomli maqolasida ushbu jarayonga quyidagicha yondashadi: " Xo'sh, tarix fanidan farqli o'laroq badiiy adabiyotning tarixiy voqelikka bu darajada erkin va mustaqil munosabatda bo'la olishining boisi boisi nima? Boisi



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

shuki, tarixni o'rganish yoki uni boricha yetkazib berish tarix fani uchun bosh maqsad bo'lgani holda, badiiy adabiyot uchun hech qachon maqsad bo'lmagan va bo'lolmaydi ham. Badiiy adabiyotning har doim ham maqsadi estetik ideal bo'lib, yozuvchi qaysi davrga, qanday materialga murojat qilmasin va qanday usullardan foydalanmasin, uning barcha intilishlari, hamma hatti - xarakatlari mazkur estetik idealni ro'yobga chiqarishga qaratiladi.

Savol tug'ulishi mumkin tarix badiiy adabiyot uchun maqsad bo'lolmas ekan, nima bo'lishi mumkin? Tarixiy material ustida ishlayotgan yozuvchi bu materialga nima sifatida qaraydi? Ilk qarashda tarixiy material badiiy taxlil obyekti bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin aslida tarix badiiy obyekt ham emas, chunki badiiy adabiyotning obyektini ham inson va uning ma'naviy dunyosi tashkil etadi."⁶² Lekin adabiyotshunos olimning yuqoridagi mulohazalari birmuncha munozaralidir. To'g'ri, yozuvchi har doim o'zining ong ostidagi ijodiy maqsadi ya'ni o'zining estetik idealini asarida aks ettiradi. Lekin tarixiy asar ustida ishlayotgan har bir ijodkor tarixi haqiqatini o'z asarining obyekti qilib olishga majbur. Chunki tarixiy romanchilikda yozuvchi estetik ideali birmuncha cheklangan bo'ladi. Negaki ijodkor o'z ijodiy maqsadini amalga oshirish uchun tarix voqeligini noto'g'ri talqin etish mumkin emas. Aksincha, tarixiy jarayonlar, ulardagi insoniy taqdirlar va davr voqeliklarini butun borligicha mahorat bilan bugungi kun kishiga yetkazib berishdan iborat. Lekin yuqoridagi kabi romanchilik talablarini ayrim hollarda tarixiy romannasivlar istisno etgan holatlar ham ko'plab uchrab turadi. Ya'ni tarixiy shaxslarning chizgilarini berishda tarix haqiqatini chetlab o'tish hodisasidir. Bu holat ko'pincha tarixiy shaxslarning millat tarixida amalga oshirgan ijobiy ishlari batafsil talqin etilib, yo'l qo'ygan xato va kamchiliklari odatda talqin etilmaydi, yoki noto'g'ri talqin etish holatlariga guvoh bo'lamiz. Bu va shunga o'xshash holatlarni sovet davri tarixiy romanchiligida ko'proq uchratamiz. Bugungi avlod o'zining buyuk ajdodlari amalga oshirgan buyuk ishlari bilishi bilan bir qatorda ular yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini ham bilishi zarurdir. Xayryatki, mustaqillik yillarida bu salbiy jarayonga chek qo'yilmoqda. Ayni tarixiy asar yaratish mashaqqatlari xususida o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri Maqsud Shayxzoda quyidagicha munosabat bildiradi: "Tarixiy asar ustida ishlash juda qiyin, - deydi Shayxzoda. - Negaki, voqealar allaqachon o'tib ketgan, ular to'g'risida esa kitoblardan, arxivlardangina ma'lumot olish mumkin. Lekin bu bilan ish bitmaydi. Tarixiy asarlarda ham qahramonlar sifatida jonli odamlar harakat qiladi. Ular jonli

⁶². A. Bag'irov. Badiiy ideal va tarixiy haqiqat. T.: Adabiyot va san'at mashriyoti, 1989. 123-bet.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

chiqmog'i uchun hatti – harakatlari, qiliqlari, o'zini tutishlari tafsilotlari va detallar orqali ifodalanishi kerak. Bu esa oson emas – har qadamda, har sahifada dabdurustan hal qilish juda qiyin bo'lgan savollar ko'ndalang bo'ladi. Ularni hal qilguncha ona suting og'zingga keladi. Masalan. XIV yoki XV asr odamlarini tasvirlar ekansan, ular bir – birlari bilan qanday salomlashganlar – bosh irg'ibmi, qo'llarini ko'ksiga qo'yibmi, bir – birlarining yelkalariga qoqibmi, qo'llarini tik ko'taribmi, qo'l qisibmi yoki yana boshqa biron tarzda ko'rishishganmi, biron kitobda buning tasviri va tasdig'i bormi degan o'xshash savollar ko'ndalang bo'ladi. Yoki u davr odamlari ko'zoynak taqqanmi, soch qo'yganmi, kiyim kechagi qanday bo'lgan, yotib turishi, yuvinib – cho'milishlari qanday kechgan va hokazo va hokazo... Bunaqa savollarning oxiri – keti yo'q. Ularga javob topmoq uchun yozuvchi tom ma'noda ba'zan katta, ba'zan kichik tadqiqot ishini amalga oshirmog'i kerak. Shundan keyin Shayxzoda Navoiy zamonida odamlar ko'zoynak taqqan – taqmaganini qanday hal qilganini aytib bergandi. Bu gaplarning barini nafaqat yosh yozuvchilar, balki bizga o'xshagan "tajribalilar" ham jon qulog'i bilan maroqlanib eshitdi, chunki bu gaplar ijodkor mehnatining mashaqqatlari haqida ancha haqqoniy tasavvur berar, yozuvchi mehnatiga hurmatni oshirardi"⁶³. Darhaqiqat, yozuvchining yuqoridagi mulohazlari ham diqqatga sazovordir. Chunki tarixiy davr muhitini tom ma'noda jonlantirish uchun mayda – chuyda detallargacha ahamyat berish taqozo etadiki, bu ham bo'lsa tarixiy mavzudagi har qanday asarni mukammal chiqishini taminlaydi. Tarixiy mavzuda ijod qiladigan har qanday ijodkor yuqoridagi kabi jihatlarga e'tiborsiz bo'lmasligi kerak. Lekin ayrim hollarda, bugungi kun tarixiy romanchiligida ham, tarixiy romanchilik me'zonlaridan chetlashish holatlari ham kuzatiladi. Bu ham bo'lsa yozuvchi o'zining ijodiy maqsadi nuqtayi nazaridan yondoshganli sababli vujudga keladigan tabiiy jarayondir. Lekin ayrim hollarda tarixiy voqelik talqinini tarixiy manbalar bilan qiyosan o'rganishni taqozo etadi. "Ona lochin vidosi" romanidagi ayrim jarayonlarni tarixiy manbalar bilan qiyosan o'rganib chiqishni talab etadi: "Shohrux Mirzo otasi tuzgan ulug' davlat bunday xavf – xatarga duch kelgan paytda sog'lig'ini ham o'ylamas, o'zini ham ayammasdi. Shuni biladigan Gavharshod begim og'it safar chog'ida keksa erining ahvolidan xabardor bo'lib turish uchun Rey yurishiga u bilan birga jo'nadi.

Shohrux Mirzo bu gal isyonni jangsiz bartaraf qildi. Muhammad Sulton bobosining g'azabidan qo'rqib, Kavkaz tomonga qarab qochdi. Uning o'rniga Shohruxning sadoqatli nevaralaridan biri 16 yashar Abdulla Mirzo hokim qilib tayinlanadi. Muhammad Sultonni bir guruh aqidaparast xo'jalar isyon girdobiga

⁶³. Ozod Sharafiddinov. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 2003 yil 19 – son.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

tortgan ekanlar. Shohrux Mirzo buni tekshirib aniqlagach, din niqobi ostida hokimyatni egallamoqchi bo'lgan buzg'ungi xo'jalarni osib o'ldirishga buyurdi."⁶⁴ Yozuvchi ushbu jarayonni tasvirlashga qaysi tarixiy manbadan foydalanganini hozircha bilmaymiz. Chunki shaxsan yozuvchining asarni yaratishda qanday tarixiy manbalardan foydalanganligi haqidagi jarayondan xabardor emasmiz. Lekin aynan shu tarixiy jarayon haqida Davlarshoh Samarqandiy boshqacha munosabat bildiradi. Xususan Turg'un Fayziyevning "Temuriylar shajarasi" kitobida quyidagi mulohazalar birmuncha diqqatga sazovordir: "Gavharshod begim Qavzin, Ray, Qum, viloyatlari hokimi – nabirasi Sulton Muhammad Hamadon va Isfahonni egallab, Sherozni qamal qilganda (1446) Shohrux bilan birgalikda unga qarshi qo'shin tortadida, Sulton Muhammadni isyonga undagan amaldorlar qatorida bir necha sayiddlarni ham qatl etmoqni Shohruxdan qattiq talab qiladi. Gavharshod begimning qat'iy talabi bilan bir necha sayiddlar ham qatl etiladilar. Ajablanarli joyi shundaki, o'ta taqvodor, xudojo'y saltanat sohibi Shohrux Mirzo xotini Gavharshod begimning irodasiga bo'ysinib, sayiddlarni qatlga hukm qiladilar. Sayiddlar ustidan bunday jazo hukmini chiqarishga na Amir Temur va na Ulug'bek Mirzo botina olmas edilar. Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, sayyidlar Shohrux Mirzodan "adolat yuzasidan taftish o'tkazish"ni yolvarib so'raydilar. Ammo Shohrux Mirzo malika Gavharshod begimning xohishini qaytarolmaydi va hukm ijro etiladi. Nihoyat, sayyidlar dor ostida turib, Shohrux Mirzoni "duoyi bad" qiladilar. Binobarin, ko'p o'tmay Shohrux Mirzo avlodi qirilib ketish sababini mazkur sayyidlar qarg'ishiga uchraganligining oqibatidir, deb yozadi Davlatshoh Samarqandiy. Shohrux Mirzo Sherozdan Hirotga qaytyotganda yo'l asnosida betoblanib, 1447 yil 12 martda vafot etadi."⁶⁵ Haqiqatdan, Shohrux Mirzo ushbu isyonni bostirigandan keyin poytaxtga qaytyotganida vafot etgan. Ana endi yuqoridagi tarixiy va badiiy manbani o'zaro mantiqan qiyoslasak: "Ona lochin vidosi"da din niqobi ostidagi buzg'ungi aqidaparast xo'jalar shahzodagi isyonga chorlagani aytiladi va uni Shohrux Mirzo qatl qilgani takidlansa, tarixiy manbada esa sayyidlar Gavharshod begim ta'siri ostida Shohrux Mirzo qo'li bilan qatl ettiriladi. Yuqorida aytib o'tilganidek Amir Temur davrida ham Ulug'bek davri ham sayyidlar, xo'jalar va boshqa diniy toifa vakillariga nisabat zug'um qilinganligi haqidagi ma'lumotlar na tarixiy manbalarda na xalq og'zaki ijodida uchraydi. Shohruh Mirzoning shaxsiyatiga

⁶⁴. P.Qodirov.Ona lochin vidosi. T. "Adad Plyus".Mchj. 2010. 67 bet. (Ushbu asardan olingan keyingi iqtiboslar o'sha asar tarzida beriladi.)

⁶⁵.T. Fayziyev. Temuriy mirzolar. Manba: <https://kun.uz/uz/14404280>



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

nazar soladigan bo'lsak, taqvodor din peshvosi sifatida bunday ishni amalga oshirgani endi bu uning ham bir inson sifatidagi xatosi, yoxud saltanat tinchligini o'ylab qilingan hukmdorlarga xos harakati sifatida baholashimiz kerak. Lekin keyinchalik Shohrux Mirzo o'zining ham vafot etishidan keyin uning avlodlari Ulug'bek Mirzo va o'g'li Abdulaziz Mirzolarning Abdulatif Mirzo tomonidan qatl etilishi, ma'lum vaqtdan keyin esa Abdulatif Mirzoning ham o'ldirilishi –yu Abusaid Mirzo tomonidan keksayib qolgan marifatli ayol Gavharshod begimning qatl etilishidan tortib Shohrux Mirzo avlodlarining butunlay qirg'inga uchragani qaysidir ma'noda Davlatshoh Samarqandiyning qarashlarini tasdiqlaydi. O'z o'rnida shuni aytib o'tishimiz kerakki, yuqoridagi tahlillar bizning mushohadalarimiz hisoblanadi. Ayni Rey yurishi voqealari haqida Pirimqul Qodirov boshqa manbadan foydalangan bo'lishi mumkin.. Keyingi masala ham Shohrux Mirzo shajarasi bilan bog'liq tarixiy murakkab jarayon hisoblanib, bu ham bo'lsa, Mirzo Ulug'bek va uning o'g'li Abdulatif o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar va ularning fojiviy yakuni masalasida bo'lib, tarixiy manbalar va adabiy talqin masalasidagi turfa xillik hali – hanuz davom etmoqda va yakdil fikr bildirilmagan, fikrimizcha, bu murakkab tarixiy jarayon xususidagi rang –baranglik bundan keyin ham davom etadi. Bu fojining sababchisi o'laroq Abdulatifning shuhratparastligi, toj – u taxtga ishqibozligi, hamda ruhan sog'lom emasligi ro'kach qilinadi va faqat Abdulatif Mirzo asosiy aybdor sifatida talqin qilindi. Vaholangki, tarixiy sharoit va Ulug'bek Mirzoning ham bu farzandiga nisbatan e'tiborsizroq bo'lganligi hamda Ulug'bekka qarshi kuchlar o'g'ildan otaga qarshi qurol sifatida foydalanilgani nazardan chetda qoldiriladi. Mustaqillikning dastlabki nishonasi o'laroq yaratilgan "Ona lochin vidosi" da ota vafarand munosabatlari yangicha yo'sinda talqin qilinganligiga guvoh bo'lamiz. Lekin yozuvchi talqini va tarixiy manbalar o'rtasida ayrim jiddiy tafovutlarni ko'ramiz. Badiiy tasvirlarda ko'plab uchraydigan Tarnob jangi xususida "O'zbekiston xalqlari tarixi" nomli ikki jildlik ensiklopediyada quyidagi tarixiy manbalar uchraydi: " 1448 yilda Ulug'bek Tarnob yaqinida o'g'illari bilan Alouddavla ustidan qozongan g'alabani Abdulatif nomidan emas, balki Abdulaziz nomidan e'lon qiladi. Bu esa ota – bola o'rtasida kelishmovchilikka olib keladi. Bundan tashqari, Ulug'bek Xirotda saqlanayotgan mol – mulkni Abdulatif ixtiyoriga topshirmagan edi. 1449 yilda Abdulatif o'z ulusida savdo solig'i "tamg'a"ni bekor qiladi. Mana shundan keyin Ulug'bek Samarqadda Abdulazizni qoldirib, Xirotda yurish boshlaydi."⁶⁶ Ikkinchi tarixiy ma'lumot Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlayi sadayn va majmuayi bahrayn" da ham Ulug'bek va

⁶⁶. O'zbekiston xalqlari tarixi. Ikki jildlik. – T.: Fan, 1992. 162 166 – betlar



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Abdulatif Mirzolar o'rtasidagi ziddiyatlar xususida aniq ma'lumotlar uchraydi. Xususan, "Matlayi sadayn" da ota va farzand munosabatlarining buzulishining sabablaridan biri sifatida Abdulatif Mirzo boyliklarining berilmaganli ko'rsatiladi: "Birinchisi (Mirzo Ulug'bek) Ixtiyoriddin qal'asiga saqlangan (o'g'liga tegishli) xazinani unga bermadi."⁶⁷ Izlanishlarimiz shuni tasdiqlaydiki, bu manba anchayin ishonarli manba hisoblanib, Abdurazzoq Samarqaniyning o'zi ham temuriylar saroyining tarixchisi hisoblanadi hamda asarning yozilish muddati ham 1467 - 1470 yillar oralig'ida yozib tugatilgan. Ya'ni Ulug'bek Mirzo va Abdulatif Mirzolar vafot etgandan keyingi yillarda yozilganligiga e'tibor beradigan bo'lsak, ushbu manbadagi ma'lumotlarda haqqoniy tarix yozilgan degan qarorga kelamiz. Endi yuqoridagi ikkita tarixiy ma'lumotlarda o'ziga xos uyg'unlikka guvoh bo'lgan holda Primqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" da tarixiy manbalarga zidroq badiiy talqinga duch kelamiz. Asarda Mirzo Ulug'bek va Abdulatif Mirzo o'rtasidagi suhbat jarayoni birmuncha munozaralidir: " Hirotga qaytgan kunlarida Mirzo Ulug'bek o'g'lining Ixtiyoriddin qal'asidagi xazinalarda Shohrux podshoh davridan buyon saqlanib turgan ikki yuz ming tilla tangasini ham oldirib berdi.

U nima qilib bo'lsa ham o'g'li bilan o'zining orasidagi paydo bo'lgan g'uborni tarqatishga intilardi. Shu maqsadda barcha arkoni davlatni Hirotning Bog'i Zog'oniga, otasining taxtgohi bo'lgan muhtasham qabulxona to'pladi. Abdulatif taxtning o'ng tomonidagi maxsus o'rinni oldi.

- Amir Temur himmatidan Ulug'bek So'zim!.. Biz dorusaltana Samarqandga qaytgaymiz, Xuroson ixtiyori esa o'g'limiz Mirzo Abdulatifga berilgay! Balx ham o'g'limizning qalamraviga kirgay!

Abdulatif o'rnidan turib, otasiga ta'zim qilar ekan, bu inoyatdan uncha xursand emasligi yuzidan sezildi. Kechqurun Ulug'bek Mirzo xonayi xosda o'g'li bilan yakka - yakka o'tirib, uning ko'nglida yana qanday istak borligini bilgisi keldi.

- Hazrat otajon, - dedi Abdulatif qo'lini ko'ksiga qo'yib. Bugungi farmoningni toji sardek qabul qilurmen. Ammo imkon bo'lganda meni Turonga chaqirib olishingizni so'raymen!

Ajabo, sizga Shohrux Mirzodek ulug' xoqonning taxti nasib etmoqda - ku shod bo'lmaysizmi? Bobongiz sizni yaxshi ko'rar edilar o'z qo'shinini sizga ishonib topshirgan edilar. Endi ul jannatmakon xoqonning ruhini shod etib,

⁶⁷ A. Samarqandiy. Matlayi sadayn va majmuayi bahrayn. Toshkent. "O'zbekiston". 2008. 305,306. betlar



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Hirotda savob ishlar qiling, el yurtning duosini oling. Bobongizdan sizga katta meroslar tegdi. Buni ilm - u ma'rifatga, bunyodkorlik ishlariga sarflang."⁶⁸ Romandagi talqinga e'tibor berilsa, yozuvchi tarix haqiqatiga teskari munosabat bildirganiga guvoh bo'lamiz. ma'lumot o'rnida shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" da ham Omon Muhtorning "Ishq ahli" romanida ham Abdulatif boyliklari qaytarib berilmagani ta'kidlanadi. Endingi murakkab masala ijodkor nega tarix haqiqatini boshqacha talqin qilinmoqda. Biz ulug' ijodkor Pirimqul Qodirovni "Matlayi sadayn va majmuayi bahrayn" va biz o'rgangan tarixiy manbalardan bexabar bo'lgan degan fikrdan yiroqmiz. Faqat yozuvchi Ulug'bek Mirzoni marifatparvar hukmdor, o'g'illariga bo'lgan munosabatda Abdulatifga ham adolat qilgan shaxs sifatidagi shaxsiyatini tasvirlash uchun shunday talqin usulini tanlagani ko'rinib turibdi. Lekin, tarix haqiqatini bilmagan keng jamoatchilik fojining sababchisi sifatida faqat Abdulatifni ko'ra boshlaydi. Bu qaysidir ma'noda tarix haqiqatiga parda tutish bilan barobardir. Lekin aslida tarixiy manbada na Ixtiyoriddin qal'asidagi boyliklar na Hirotdagi Shohrux Mirzodan qolgan xazinalar Ulug'bek ixtiyori berilgan. Bu aslida Ulug'bekning o'z o'g'liga nisbatan qilgan adolatsizligi emasmi? Axir Butun boshli Xuroson ixtiyori Abdulatifga topshirilgan holda undagi xazina Abdulatifga berilmagani xalqona til bilan aytganda gadoga temir toj kiydirgan bilan barobardir, bu kabi kamsitilishni shon - shuhratga moyil Abdulatif Mirzo qabul qilolmaydi. Aksincha oradagi jiddiyatni yanada kuchaytirgan. Masalaga kengroq yondashadigan bo'lsak, Shohrux Mirzo Mirzo Ulug'bekni Turon hukmdori etib tayinlagandan so'ng uning ichki ishlari bilan deyarli aralashmaganligi, jumladan, moliya siyosatini ham o'zi erkin amalga oshirganligiga guvoh bo'lamiz. Lekin Ulug'bek o'ziga qilingan marhamatni negadir farzandiga ravo ko'rmaydi. Abdulatif ham Abdulaziz Mirzo kabi e'toborga loyiq farzand, Shohrux Mirzoning dovyurak nevara sarkardalaridan biri edi. U ham Turon taxtiga birdek davogar. Shohrux Mirzo vafot etgach Ulug'bek Mirzoga harbiy qudrat kerak edi. Balki Abdulatifga Saltanatni topshirib, o'zining maslahatlari bilan boshqarishi mumkin edi. Chunki saltanatga Shohrux Mirzo kabi harbiy qudrat sohibi kerak edi. Garchi Abdulatifda bobosi kabi aql - zakovat sohibi bo'lmasa -da harbiy mahorat jihatidan anchayin kuchli sarkarda bo'lganligi shubhasiz. Bejizga, Shohrux Mirzo ham vafoti chog'ida o'zining ellik ming kishilik qo'shinini Abdulatif Mirzoga ishonib topshirmagan edi. Ulug'bek Mirzo esa o'zining farzandining mana shunday qobilyatidan foydalana bilmagan. Askincha, uni har doim poytaxtdan uzoqda tutishga harakat qilgan. Tarixiy romannavislar masalaning mana shu

⁶⁸. O'sha asar.



“INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023”

tarafklarini haligacha batafsil talqin qilishmagan. Lekin “Ona lochin vidosi”da Ulug‘bek Mirzoning o‘g‘liga qarata aytgan bobongizdan sizga ko‘p meroslar tegdi, ularni bunyodkorlik ishlariga sarflang degan jumalari esa biz qiyosan tadqiq etayotgan tarix haqiqatiga ziddir. Asardagi yozuvchining ijodiy maqsadi esa Ulug‘bek Mirzoga qaysidir ma‘noda yon bosishdir. O‘qirman qarashlarida Ulug‘bek Mirzo marifatparvar shaxs, Abdulatif esa otasining yaxshiliklariga xiyonat qiladigan johil farzand sifatida namoyon bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, tarix asl holda tasvirlanishi kerak. Jumladan, Hirotda Abulqosim Bobur bostirib kelgan bir vaziyatda Abdulatif Turonga chaqirilmay o‘zning sobiq mulki Balxni boshqarish uchun jo‘natiladi. Mutaassil taqiqlar va Turondan doimiy uzoqda tutish natijasi o‘laroq farzand otasiga tom ma‘noda dushmanga aylanadi. Bundan tashqari, “Ulug‘bek xazinasi”da ham “Ona lochin vidosi”da ham Ulug‘bek Mirzoning Balxga o‘g‘liga qarshi lashkar tortib borgani tasvirlanmaydi. Vaholangki, bu urushning boshlovchisi Mirzo Ulug‘bekdir. To‘g‘ri Abdulatif o‘z mulkida otasi joriy etgan “tamg‘a” solg‘ini bekor qilib, otasiga qarshi harakat qilgan. Lekin Mirzo Ulug‘bek o‘z o‘g‘li bilan, yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidan, murosa yo‘lini tanlashi ham mumkin edi. Lekin Mirzo Ulug‘bek boshliq lashkar Abdulatif boshchiligidagi qo‘shin bilan Amudaryoning ikki tarafida ma‘lum muddat jang ham bo‘lib o‘tganligi tarixiy haqiqatdir. Samarqandda Abdulazizning boshqaruv siyosatidan nufuzli amirlarning noroziligi tufayli Ulug‘bek Samarqandni tinchitish ortga qaytganishga majbur bo‘ladi. Qolaversa, Ulug‘bekning ma‘rifatchilik ishlaridan mamlakat taraqqiy etgan bo‘lsa – da, Ulug‘bekning olib borgan siyosati yuqori martabali harbiy mulozimlarga unchalik maqul kelmagan. Agar e‘tibor berilsa, Hirotdagi Shohrux Mirzoning kuchli siyosiy, harbiy ta‘siri tufayli Ulug‘bekka qarshi kuchlar unga qarshilik ko‘rsatishga botina olmas edi. Shohrux Mirzo vafot etgandan keyingi g‘alayonlarda Ulug‘bek Mirzo hokimiyati birmuncha zaiflashganligidan foydalangan Turon amirlari Abdulatifni hokimiyatga chiqarishga muvoffaq bo‘ldilar. Ulug‘bek o‘z hukmronligi davrida o‘ziga qarshi dushman ham ortirgani tabiiy hol, ayniqsa, diniy tabaqa vakillari uning ilm fan sohasida qilgan ishlarini xurofot sifatida qabul qilgan hamda unga nisbatan zimdan adovat shakllanganib ulgurgan edi. Mana shunday bir tarixiy murakkab bir sharoitda Ulug‘bek Mirzo hokimiyatini saqlab qolishi mumkin emas edi. Mirzo Ulug‘bek tarixda marifatli humdor bo‘lgan, lekin kuchli ta‘sir doiradagi harbiy sarkarda emas edi. Mana shu kabi jarayonlar tarixiy romannavislar nigohidan hamon chetda qolmoqda. Zero tarix kechmishidagi asl haqiqatni avlodlar bilishi shart va zarur. “Ona lochin vidosi”dagi keyingi munozarali masala Gavharshod beginning qatl etilishi bilan bog‘liq talqin masalasi. Asardagi



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

yozuvchining ayrim talqinlari tarixiy haqiqatga tom ma'noda zid bo'lmasa -da, lekin tarixiy manbalar bilan qiyoslab o'rganishni taqozo etadi. Asardan olingan quyidagi ko'chirmalar birmuncha munozaralidir: "Kechki payt oftobning tafti qaytgach, amir Sherhoji ham qorovulxondan chiqdi. Nomozi asrga yaqin Bog'i Safedga Gavharshodbegim madrasasining ma'muriyatini boshqaradigan mutavalli keldi. Qalin qora soqol qo'ygan oq sallalik bu odamni Sherhoji tanir ekan. Mutavallining ta'zim qilib bergan salomiga alik oldi - yu, u ichkariga kirib ketgandan so'ng qo'rchiboshiga sekin shipshitib qo'ydi:

- Mana shuni tutmoq kerak. Begimning ishongan odami. Asli marvlik.

Mutavalli Gavharshod begim topshirgan ishlarni qog'ozga yozib oldi. Kalitni qo'yin cho'ntagiga solib, bog' tashqarisiga chiqqanda, uni ikki navkar ikki qo'lidan tutib, chetroqdagi qoravulxonaga boshlab ketdi.

O'sha yerda eshikni ichkaridan bekitib, mutavallini hushidan ketguncha kaltakladilar. Behush yotganda qo'ynidagi kalitni oldilar va qog'ozlari orasiga oldindan tayyorlangan maxfiy maktubni solib qo'ydilar. Go'yo Gavharshod begim tomonidan yozilgan bu maktubni mutavalli Marvga Sulton Ibrohimga yashiriqcha olib ketayotgan paytda qo'lga tushgan bo'ldi. Amir Sherhoji Abusayid huzuriga shoshildi. Gavharshod begim Marvdagi chevarasini isyonga undaganini, Hirot qo'rg'onining darvozasini unga tunda yashiriqcha ochib bermoqchi bo'lganini, bu gaplar yozilgan maktub qo'lga tushurilgani Abusayidga xabar qilindi.

- Men fitnadan mutlaqo bexabarmen! (Gavharshod begim nutqi) Saksonga kirgan ro'zador ayolmen"... Parvardigor o'zi shohid! Men Marvga ketganlarga tayinlagan edim. Mirzo Ibrohim kasalmand, o'zi yosh, Sulton Abdusayidga kuchi yetmagay, boshqa urinmasin, taqdirga tan bersin, deb aytib yuborganman!"⁶⁹. Asarda yozuvchi talqini bo'yicha ma'rifatli ayol Gavgarshod begimga atayin siuqasd qilingani tasvirlanadi va qaysidir ma'noda bu hayotiy va ishonarli tasvirlangan. Lekin Turg'un Fayziyevning "Temuriy malikalar" kitobida esa asardagi uyushtirilgan fitna tarixiy haqiqat ekanligi ta'kidlanadi: " 1457 yilda Abulqosim Bobur Mirzo Mashhadga keladi. Saroyda katta shohona ziyofat beriladi. Bazm asnosida sharob ichib o'tirgan hukmdorning ahvoli o'zgarib, behol yiqiladi. Tabiblar muolajasi foyda bermaydi va u 36 yoshida vafot etadi. Shundan so'ng taxt uchun yana o'zaro kurash boshlanadi. Shahzodalarning noittifoqligidan foydalangan Samarqand hukmdori Sulton Abusaid Mirzo (1424 - 1469) Xurosonni bosib oladi. Sulton Abusaid Mirzo Samarqand taxtini o'zining katta o'g'li Sulton Ahmad Mirzoga (1451 - 1493) berib, Xirotni o'zining poytaxti deb e'lon qiladi. Bu

⁶⁹. O'sha asar.218 – 222 betlar



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

vaqtda malika Gavharshod begim 80 yoshga yaqinlashib, ancha qarib qolgan edi. Biroq qarib qolgan malika Xuroson taxtidan hali ham voz kechmagan edi. Binobarin, chevarasi Sulton Ibrohim Mirzoni (1440 - 1460) hukmdor Sulton Abusaid Mirzoga qarshi isyon qilishga undaydi. Malikaning bu harakatidan xabar topgan Sulton Abusaid Mirzo malikani chopib tashlashga farmon beradi. Farmonga muvofiq 1457 yilda Gavharshod begim chopib o'ldiriladi va o'zi qurdirgan madrasa yonidagi Boysunqur dahmasiga dafn etadi."⁷⁰ Ushbu risola mustaqillikning dastlabki yillarida chop etilganligini hisobga oladigan bo'lsak, bunda hech qanday tarix o'zgartirilmaganligi mafkuraviy tayziqlardan holi tarzda yozilganligi ayon bo'ladi. Tarix kechmishiga chuqquroq nazar solinsa, Gavharshod begim Shohrux Mirzo davrida siyosiy jarayonlarda faol bo'lganligi hamda taxt vorisi uchun kurashda Alauddavlani taxt vorisi qilishga harakat qilgan. Malikaning aynan bu harakati tufayli Shohruxzodalar o'rtasida anchayin qonli kurashlar bo'lib o'tadi. U qanday qilib bo'lsa ham Xuroson taxtiga Shohrux Mirzo avlodini o'tqazishga harakat qilgan. Lekin yoshlikdan bir - biri bilan adovat va amalparastlik ruhida o'sgan nevara va chevaralar Xuroson davlatini o'z qo'llarida saqlab qola olmaganligidan foydalangan Abusaid Mirzo Xurosonni osonlikcha qo'lga kiritib o'zining poytaxti etib tayinlaganligini, shubhasiz, Gavharshod begim hazm eta olmaydi va qanday qilib bo'lsa ham hokimyatni Shohrux Mirzo avlodlari qo'lida saqlab qolishga harakat qilgan. Malikaning bu harakati Abusaidga yoqmagani, qolaversa yoshi anchayin keksayib qolganligiga qaramasdan Gavharshod begimning mavqeyi baland edi o'z maqsadiga erishish uchun har qanday vaxshilikdan qaytmaydigan Sulton Abusaid Gavharshod begimni nevaralarini isyonga chorlagani uchun uni qatl ettiradi. O'z navbatida ushbu vaxshilik temuriylar tarixidagi eng ayanchli voqelik sifatida talqin qilinadi. "Ona lochin vidosi" esa yozuvchi tarix kechmishida bo'lib o'tgan mudhish voqeani o'zining ijodiy maqsadiga moslab talqin qiladi. Ya'ni uyushtirilgan fitna aslida, bizning fikrimizcha, yozuvchining ijodiy to'qima mahsuli hisoblanib, Gavharshod begim qo'li bilan amalga oshirilgan ishni (uning ham inson sifatidagi tarixiy xatosini) boshqa bir tarixiy personaj tomonidan uyushtirilgan suiqasd sifatida talqin etadiki, bu ham bo'lsa yozuvchi Gavharshod begimni qora bo'yoqlarda tasvirlashni istamaganli natijasidir. Lekin shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, Gavharshod begim millat tarixida donishmand, tadbirkor, marifatli ayol bo'lishi bilan birgalikda bir qancha siyosiy jarayonlarga faol aralashgan siyosiy arbob hamdir. Shuning uchun u shaxs atrofidagi salbiy munosabatlar ham aslida tarixiy haqiqatdir.

⁷⁰. Turg'un Fayziyev. "Temuriy malikalar". T. "A. Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti." 1994. 16 - 17 betlar.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Agar e'tibor berilsa, Gavharshod begim nevarasi Abdulatif tomonidan ham asirga olinganligi "Ona lochin vidosi" da tasvirlanadi. Yozuvchi Abdulatifning mulozimi Junayd Bo'taning gaplariga ishonib, momosini asrga olganligini, ya'ni Abdulatifni o'zining jigargo'shasiga shafqatsiz munosabatda bo'lgan, shoshqaloq, vahimagan beriladigan, johil inson sifatida talqin etadi. Lekin aslida unaqa emas, ya'ni Abdulatif biz o'ylaganchalik, laqma, yoki o'ta darajada tajribasiz emas edi. Gavharshod begimning Hirotga, ya'ni Alauddavlaga mudofa inshootlarini mustahkamlash haqidagi topshirig'idan xabar topgandan keyin (Turg'un Fayziyevning yuqorida ta'kidlab o'tgan asarida ushbu ma'lumot uchraydi) momosini asr olishga majbur bo'lgan. Malikaning asl niyati Hirot taxtiga suyukli nabirasi Alauddavlani o'tqazish va shu orqali o'zining siyosiy doirasini saqlab qolish edi. Lekin taxtning qonuniy vorisi Shohrux Mirzoning to'ng'ich farzandi Miro Ulug'bek edi. Ana shunday bir sharoitda Gavharshod begimning harakatlarini ham Abdulatifning qilgan harakatlarini ham oqlashni iloji yo'qdir. Chunki aynan Gavharshod begimning siyosiy jarayondagi faolliklaridan keyin Xurosondagi tarixiy sharoit birmuncha chigallashadi. Qolaversa, Shohrux Mirzo avlodlarining bir - biri bilan o'zaro adovatda bo'lib qolishi natijasida vujudga kelgan siyosiy parokandalik tufayli Xuroson boshqaruvi boshqa bir temuriyzoda boshqaruviga o'tib ketadi. Buning oqibatida esa bir sulola vakillari o'rtasida qonli urushlar, sulolaviy nizolar kelib chiqadi. Bu ham bo'lsa temuriy sulola vakillarini kelgusi avlodlar naqadar salbiy xotira bilan xotirlashiga zamin yaratgan.

Yuqoridagi tahlillarimiz va mushohadalarimizdan keyin quyidagicha umumlashma xulosalarga keldik;

Birinchidan, tarixiy romanlarda tarixiy vaqelik va badiiy talqin o'zaro uyg'un holda bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, yozuvchining tarixiy voqelikka munosabi birmuncha erkin bo'lishi mumkin, biroq tarix haqiqatini butun borligicha, talqin qilishi zarur. Ijodkor bunda o'zining ijodiy maqsadini ro'yobga chiqarish uchun tarixiy voqelikka zid munosabatda bo'lmasligi shart. Chunki tarixiy manbalarni keng jamoatchilik o'rganmaganligini inobatda oladigan bo'lsak, tarixiy asarlarni adabiyot ixlosmandlari va keng xalq ommasi o'rganadi va shunga yarasha ajdodlar tarixiga munosabatda bo'ladi. Bu jihatni tarixiy asar ustida ishlaydigan har bir yozuvchi bu jihatni e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak.

Uchinchidan, tarixiy romanlar va tarix haqiqati o'rtasida ayrim tafovutli jihatlar ham borki bu ham bo'lsa quyidagi ikki jihat; tarixiy voqelik va tarix shaxslar haqidagi qarashlar va manbalarning turfa xilligi va ijodkor o'zining ijodiy



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

maqsadi mos talqin uslubi tanlagani bilan bog'liqdir. Yuqoridagi kabi jihatlar tarixiylik va badiiylik mezonlarining shartli qonunyatlaridir.

Знаменитый ученик Улугбека, самаркандский астроном [Али Кушчи](#) (1403 – 1474), после смерти Улугбека в [1470-х](#) годах прибыл в [Стамбул](#), где был назначен профессором медресе [Айя София](#). В 1569 году султан Османской империи по просьбе главного астронома империи Таки ад-дина (1526 – 1585) финансировал строительство обсерватории по примеру Самаркандской обсерватории Улугбека. Сам Таки аддин увлёкся астрономией после знакомства с внуком самаркандского астронома Али Кушчи во время поездки в Стамбул. В 1580 году под давлением реакционеров здание обсерватории было уничтожено.^[28]

Обсерватория Улугбека же постепенно разрушалась и в конце [XVII века](#) была разобрана на кирпичи.



Исследования в обсерватории Таки ад-Дина, XVI век

Европейским астрономам звёздный каталог Улугбека стал известен после его публикации в [1648 году](#) в [Оксфорде](#) – одном из старейших очагов науки и культуры Англии – где впервые была частично опубликована главная работа, выполненная в знаменитой самаркандской обсерватории Улугбека. Работу подготовил к печати и прокомментировал [Джон Гривс](#) (1602 – 1652), профессор астрономии Оксфордского университета. Позже фрагменты каталога издавались в Англии неоднократно.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"


Спустя 17 лет после первой оксфордской публикации, учёный хранитель Бодлеянской библиотеки в Оксфорде, английский востоковед и переводчик [Томас Хайд](#) (1636 – 1703) подготовил и напечатал на персидском и латинском языках новое издание самаркандского каталога под названием «*Tabulae Long, ac Lat. Stellarum Fixarum, ex observatione Ulugh Beighi*», Oxonii, 1665.

В «Каталоге звёздного неба», изданном [Яном Гевелием](#), есть гравюра, изображающая символическое собрание величайших астрономов мира, живших в разные времена в различных странах. Они сидят за столом, расположившись по обе стороны от музы астрономии Урании. Среди них изображён и Улугбек.

Немецкий астроном и составитель карт [Луны Иоганн Генрих фон Медлер](#) в честь Улугбека назвал [лунный кратер Улугбек](#), нанесённый на его лунную карту [1830 года](#).

Наиболее подробный анализ звёздного каталога Улугбека, основанный на изучении 8 рукописей, хранившихся в библиотеках Великобритании, был опубликован в США в [1917 году](#) [Э. Б. Кноблем](#)^[en] под названием «*Ulugh Beg's Catalogue of Stars. Revised from all Persian Manuscripts Existing in Great Britain*».

Стараниями [В. Л. Вяткина](#) в [1908](#) и [1914 годах](#) было найдено местонахождение остатков [обсерватории Улугбека](#) и произведены их первые раскопки. Исследования обсерватории были успешно продолжены [М. Е. Массоном](#) в [1941](#) году, [А. А. Пулявиным](#)^[кто?] в [1943](#) году и [В. А. Шишкиным](#) в [1948](#) году.



[Почтовая марка Узбекистана, 1994 год.](#)

Сохранились некоторые личные вещи Улугбека, однако они разбросаны по разным музеям и частным коллекциям мира. Его личный сундучок



“INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023”

хранится в [Стамбульском музее Топкапы](#). Рубиновый камень, когда-то украшавший корону Улугбека, находится в частной коллекции арабского шейха ас-Сабаха^[29]. Кубок Улугбека, выполненный из нефрита, экспонируется в [музее фонда Галуста Гюльбенкяна](#) в Лиссабоне и считается одной из «жемчужин» коллекции^[30]. Нефритовая чаша Улугбека (с ручкой в виде надкусывающего край льва) хранится в Британском музее^[31]. На чашке выгравирована надпись на среднеазиатском тюркском языке (Карами Хакка нихоят йукдур), что означает «Щедрость Бога бесконечна»^[32].